



## ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ЎЗБЕКИСТОННИНГ МАЪНАВИЙ, ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ  
ТАРАҚҚИЁТИ ВА ЗАМОНАВИЙ ТАРИХ ФАНИ  
(янгича ёндашувлар)



Республика илмий - амалий  
конференцияси материаллари



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ЎЗБЕКИСТОННИНГ МАЊНАВИЙ,  
ИЖТИМОИЙ -ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТИ ВА  
ЗАМОНАВИЙ ТАРИХ ФАНИ  
(ЯНГИЧА ЁНДАШУВЛАР)**

Республика илмий-амалий конференцияси  
материаллари

**2018 йил 19 май**

**Қарши - 2018**

Мазкур тўпламда Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлигининг **12 март 2018 йилдаги 233-сонли буйруғига** асосан **2018 йилнинг 19 май** куни ўтказилган «**Ўзбекистоннинг маънавий, ижтимоий-иктисодий тараққиёти ва замонавий тарих фани (янгича ёндашувлар)**» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари ўрин олган.

Тўпламга “Ҳаракатлар стратегияси”нинг келажак истиқболлари, тарих, тарихий хотира ҳамда маданий меросга янгича ёндашувлар, Ватан тарихининг тарихшунослиги, археология ва этнологиясидаги янги тадқиқотлар натижалари, Ўзбекистондаги бағрикенглик, миллатлараро ва диний муносабатлардаги барқарорлик, тарихни ўқитищдаги инновациялар ҳамда янги технологиялар, мамлакатимиздаги ёшларга оид давлат сиёсати каби долзарб йўналишларга бағишлиланган мақолалар киритилган.

#### **МАСЪУЛ МУҲАРРИРЛАР:**

- А. Сагдуллаев** – т.ф.д., профессор, академик
- Б. Эшов** – тарих фанлари доктори, профессор
- А. Ҳасанов** – тарих фанлари номзоди

#### **ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:**

- Б. Эшов** – тарих фанлари доктори, профессор
- А. Ҳасанов** – тарих фанлари номзоди
- С. Чориев** – фалсафа фанлари доктори, профессор
- О. Бўриев** – тарих фанлари номзоди, ҚарДУ профессори
- Ф. Раҳмонов** – тарих фанлари номзоди
- Н. Ражабова** – тарих фанлари номзоди
- А. Эрназаров** – ўқитувчи
- Ф. Абдуллаева** – оператор

**Матнларда фойдаланилган мисол, кўчирма ва маълумотлар аниқлиги учун муаллифлар жавобгардирлар.**

## МУНДАРИЖА

№	Муаллифлар Ф.И.Ш.	Мақола номи	Бет
	Сўз боши		3
<b>I ШУЪБА</b>			
<b>ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ – ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИННИГ МАҶНАВИЙ, ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЭНГ АСОСИЙ ДАСТУРИ</b>			
1	С.Чориев	Хавфсизликни таъминлаш – стратегик вазифа	5
2	Э.Х. Бобумуродов М. Алламуротова	Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришни ҳаракатлар стратегиясининг мазмун-моҳияти ва аҳамияти	7
3	Ж. Дўстмуродов З.Кенжаев	Маҷнавий таҳдидлар ва унинг олдини олишда ёшлар тафаккурида муросасиз курашни шакллантириш муаммолари	8
4	А.Якубов	Мехнат низолари ва қонунчилик	11
5	А.Рахматуллаев	Халқ педагогикаси тарбия омили	13
6	А.Дўланов Р.Бойматов	Умумманфаат йўлидаги муштарак мақсадлар	15
7	Ф.Маллаева	Ёшлар ўртасида китобхонлик маданиятини шакллантириш	16
8	А.Тўраева	Глобаллашув ва миллий оиласи қадриятлар	18
9	С.Ниёзов	Ўзбекистон қишлоқларида ижтимоий инфратузилманинг ўзгариши	20
10	Х.Худойбердиев, Н.Ё. Рўзиева	Тинч-тотувлик ва барқарорлик сари	21
11	Ш.Ш.Ҳамроқулова	Қозоғистондаги ўзбек миллий маданият маркази тарихи ва фаолияти	25
12	С. Ниёзов	Ўзбекистоннинг қишлоқ жойларида адабий-бадиий мухитнинг ривожланиши	27
13	С.Авазов	Тараққиётнинг янги босқичи, янги вазифалар	30
14	Э. Ибрагимов	Ҳаракатлар стратегияси – ёшларни руҳий манипуляциядан химоялашнинг ғоявий-ҳуқуқий асоси	32
15	J.A.Jabborov	Iqtisodiy ongning jamiat hayotida tutgan o‘rnii	34
16	А. Лутфуллаев О. Рустамова	“Ҳаракатлар стратегияси” Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маҷнавият пойдевори	36
<b>II ШУЪБА</b>			
<b>ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ, ТАРИХИЙ ХОТИРА ҲАМДА МОДДИЙ ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС МАСАЛАЛАРИДА ЯНГИЧА ЁНДАШУВЛАР</b>			
17	Ш. А. Ҳайитов К. Ж. Рахмонов	Дўстлик ва қардошликтининг рамзига айланган бинолар (ўзбек турк ҳамкорлиги тарихидан)	38
18	Б.Ж.Эшов	Чиғатой улусида давлат бошқарувининг айрим жиҳатлари	40
19	А.Чориев Н. Ахмадова	Хожа Неъматиллоҳ зиёратгоҳи	44
20	А.Чориев	Амир Темур даврида давлатчилик	45
21	А.А.Одилов	XX аср 50- йиллари иккинчи ярми 60- йиллар бошларида Ўзбекистонда амалга оширилган совет диний сиёсати тарихидан	48
22	А.Б. Холикулов	Қадимги Ўрта Осиёда илк деҳқончилик маданиятининг шаклланиши ва ривожланиш омиллари	49
23	Ф.Б.Очилдиев	Ўтрок деҳқончилик маданияти ва урбанизация жараёнлари	52
24	С. Наврӯзов	Буюк маърифатчи ва файласуф	54
25	Ф.Рахмонов	Ўзбек элчилик алоказалари мозий сахифаларида	56
26	Б.С. Сафаров	Ўзбекистонда таълим ислохотининг тарихий илдизлари	59
27	Н. Кувватова	Карши – қадимий хунармандлар шаҳри	61
28	Х.Х. Худойбердиев Ш. К. Алимов	Тарихий хотира мұқаддас	63
29	Т. Курбонов	Маҷнавий юксалишда тарихий хотиранинг ўрни	65

90	Z. A. Toʻlanova	Amir Temur davri tarixini oʻrganishda Klavixo “kundaligi”ning ahamiyati	186
91	З.Т.Мамбетназова	Из истории освоения южного приаралья	189
92	З. Э. Холиков, У. И. Исаров	Эски термизнинг мудофаа иншоотлари археологик тадқикот обекти сифатида	191
93	Д.О.Ҳайдаров	Нуробод ресурс шаҳар сифатида	192
94	A.S.Majidov, M. J. Sharipov	Kitob va shahrisabz bekliklarining rus qoʼshinlari tomonidan egallanishiga doir	194
95	У. Б. Мирзалиев	Мустақиллик йилларида демографик муаммоларга давлат эътибори	197
96	Ж.Бердиев, Ш.Норматов	Ўрта Осиёнинг тош давридаги табиий-иктисодий маконлари тарихига доир баъзи мулоҳазалар	199
97	О. Бўриев, Ф. Шарипов	Муқаддас заминни эъзозлаш билан боғлиқ азалий кадриятлар	201
98	X. F. Ойназаров, Қ. Б. Тошалиев	Зараутсой қоятош суратлари тарихий манба сифатида	204
99	Ф. Эгамбердиев	Қарши воҳаси илк ўрта аср кишлок маданиятини ўрганишда археологик манбаларнинг ўрни	205
100	М. Б. Маматова	Чай в Узбекистане: чайные традиции и обычаи	207
101	V. E. Abirov	Zamonaviy sharoitda oʻzbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalasining oʻrganilishi	209
102	Ф. Эгамбердиев	Қарши воҳасидаги археологик тадқикотлар тарихидан (С.К.Кабанов кузатувлари асосида)	210
103	Б. Ахмедов	Ўзбекистонда коракўлчилик соҳасидиги илмий-тадқикот ишлари ва унинг натижалари	211
104	Х.Кулдашев	Жадидчиликда таълим ва тарбия масаласи	213
105	М. Б. Якубова	Накшбандийский орден и его специфические особенности в историческом контексте	214
106	Б.Тошпўлтов	Оила - жамиятнинг негизи	217
107	A.Davronov	Qashqadaryo viloyatida turizm sohasida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari	219
108	У. Мўминов	Илк ўрта асрлар даври термиз шаҳри ва вилоятининг тарихий географик шарҳи	220
109	М.Усмонов	Ўзбек кўнғиротлари муаммоси тарихшунослиги ва этник тарихни ўрганиш методологияси	223
110	А. Ҳасанов	Ўрта аср тарихий манбаларда кеш шаҳри вилоятининг шарҳи	226
<b>IV ШУЪБА</b>			
<b>БАГРИЕНГЛИК – ЎЗБЕКИСТОНДАГИ МИЛЛАТЛАРАРО ВА ДИНИЙ МУНОСАБАТЛАР ЖАМИЯТ БАРҚАРОЛИГИНИНГ АОСИ</b>			
111	P. X.Муртазаева	Ўзбекистон – бағриенглик тамойиллари уникал тарзда сакланган худуд	229
112	Ф.А.Ахмедшина	Воспитание культуры толерантности и гуманизма: важнейшая стратегическая задача образования в XXI веке	232
113	Э. Ҳ. Бобомуродов	Миллатлараро тотувлик ва диний бағриенглик тинчлик ва тараққиёт омилидир	233
114	К.Д.Саипова	Толерантность узбекского народа к эвакуированным и депортированным народам в годы войны над фашизмом	235
115	X. Nizomov	Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – tinchlik va osoyishtalikning mustahkam kafolati	237
116	Х. Х. Худойбердиев, Ш. М. Рахматова	Миллатлараро тотувлик – тараққиётимиз мезони	240
117	Р. Р. Имамкулов	Некоторые проблемы культуры межнациональных отношений общения в условиях билингвизма.	243
118	Ё. Тошпўлатов	Хаётбахш бағриенглик	245

3. Кўргонтепа туман ҳокимияти иктисодиёт бўлими маълумотлари 2017 й.
4. Тўракўрғон туман ҳокимиятининг иктисодиёт бўлими маълумотлари 2017 й.
5. Бешарик туман ҳокимлигининг иктисодиёт бўлими маълумотлари 2017 й.

## AMIR TEMUR DAVRI TARIXINI O'RGANISHDA KLAVIXO "KUNDALIGI"NING AHAMIYATI

**Z. A. To'lanova – doktorant(PhD)**  
*Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti*

Bugungi kunda, mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston tarixini, xususan uning qadimgi zamon va o'rta asrlardagi tarixini o'rganish bilan bog'liq ilmiy faoliyatda ijobjiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, Amir Temur va Temuriylar davri, bu davrdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy muhitga oid buyuk ajdodlarimizdan qolgan qo'lyozma asarlar va moddiy-madaniy yodgorliklarni o'rganish, ta'mirlash va avaylab-asrashning umumiy ahvoli, makkabarda, o'rta va oliv o'quv yurtlarida O'zbekiston xalqlari tarixining o'qitilishi bilan bog'liq bo'lgan masalalar xususida qiziqishlar tobora ortib bormoqda.

Turonzamin Amir Temur davrida Buyuk ipak yo'lining qaynoq, gavjum, fayzli-barakali go'shalaridan biriga aylandi. Sohibqiron sultanati Yer yuzidagi ko'pgina davlatlar va ellar bilan siyosiy-diplomatik, iqtisodiy-savdo va madaniy aloqalar o'rnatdi. Shu bo'isdan ham Temur va Temuriylar davri dunyo ilmiy tadqiqotlarida Markaziy Osiyo tarixidagi buyuk yuksalish davri, deb baholanib kelmoqda. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlaydi: -- "Ma'lumki, bizning milliy davlatchiligimiz necha ming yillik qadimiy tarix va boy madaniyatga ega. Binobarin, diplomatik munosabatlар ham tariximizning eng chuqur qatlamlariga borib taqaladi. Bu haqiqat nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo olimlari tomonidan keng e'tirof etilgan. Bizning ajdodlarimiz orasidan mashhur va mohir diplomatlar, elchilar yetishib chiqqani haqida ko'plab tarixiy ma'lumotlar mavjud. Dunyodagi diplomatiyaga oid eng zo'r kitoblar ham aslida Sharqda, jumladan, bizning zaminimizda yaratilgan, desak, adashmagan bo'lamiz. ... Yoki Amir Temur bobomiz va temuriylar sultanatini oladigan bo'lsak, ushbu sulola hukmronlik qilgan yillarda o'lkamizda diplomatik munosabatlар naqadar yuksak darajaga ko'tarilganiga guvoh bo'lamiz. Sohibqiron bobomizning Fransiya, Angliya, Ispaniya, Vizantiya, Misr, Xitoy, Hindiston, Usmoniyalar imperiyasi kabi ko'plab davlatlarning hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari va yozishmalari buni yaqqol tasdiqlaydi. Amir Temur saroyiga dunyoning turli mamlakatlaridan, jumladan, Yevropa davlatlaridan o'nlab elchilar kelgani tarixdan yaxshi ma'lum. O'sha davr manbalarida 1389-1398 yillar oralig'ida, ya'ni, salkam o'n yil ichida Amir Temur nomidan Xitoya 9 marta elchilar borgani qayd etiladi. Ayni vaqtida Amir Temur va temuriylar sultanati nomidan Yevropa va Osiyo mamlakatlariga vakil bo'lib borgan, asli shahrisabzlik Muhammad Keshiy, shuningdek, Mavlono Hofiz, G'iyosiddin Naqqosh, Abdurazzoq Samarcandiy kabi elchilarining nomlari tarix sahifalarida saqlanib qolgan. Ularning hayoti va faoliyati, afsuski, hozirgacha chuqur o'rganilmagan va o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi" [1].

Shuni e'tirof etish kerakki, Amir Temur va Temuriylar davriga oid qimmatli ma'lumotlarni o'rganishda Mashhur sayyoh va elchi Rui Gonsales de Klavixoning "Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar)" asari bebaho tarixiy manbalaridan biri hisoblanadi. "Kundalik" Kastiliya va Leon qiroli Enriko III (1390-1407) tomonidan Amir Temur huzuriga yo'llangan Rui Gonsales de Klavixo boshliq elchilar bo'sib o'tgan ulkan va mashaqqatli yo'l xotiralaridan iborat bo'lib, u ispan elchisining 1403—1406 yillarda Orta Yer dengizi sohilidagi mamlakatlarida, Turkiyada, Kavkaz orti yerlarida, Eronda va Movarounnahrda, Amir Temur sultanatida hamda uning saroyida ko'rgan-bilganlarini, bu davrda elchining o'z qalbida kechgan turli-tuman o'y fikrlarini ham aks ettirgan.

Klavixoning Amir Temur yurtiga qilgan elchilik sayohati 1403 yilning 22 mayida boshlanib, o'n besh oy deganda u Samarqandga yetib keldi. Bu sayohatda Klavixoga ilohiyot ilmining nomzodi (magistri) Alfonso Paes de Saita Mariya, qirolning maxsus soqchisi Gomes de Salazar

hamroh bo‘ldilar. Klavixoning safari Amir Temurning 1402 yilda Ispaniyaga xoja Muhammad qozi boshchiligidagi yo‘llagan elchiligiga javoban qilingan edi. Tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, XIV asrning 80-90-yillarida Temur davlatining shon-shuhrati Ovro‘po mamlakatlarigacha borib yetdi. Angliya, Fransiya, Ispaniya, Genuya va Vizantiya singari davlatlarning hukmdorlari Amir Temur bilan siyosiy va iqtisodiy (savdo) munosabatlar o‘rnatishga intilib, ulug‘jahongir huzuriga muntazam ravishda o‘z elchilarini yuborib turdilar.

Klavixoning Amir Temur huzuriga qilgan elchilik sayohati juda uzoq, xavf-xatar va mashaqqatlar bilan to‘la safar bo‘ldi. Klavixo va uning hamrohlari Ispaniyaning janubi sharqiy tarafida joylashgan Kadis shahridan yelkanli kemada O‘rtta yer dengizi bo‘ylab suzdilar, so‘ngra Stambul, Trabzon, Arzirum, Tabriz, Tehron, Mashhad, Marv va Balx orqali quruqlikda yo‘l bosdilar. Ular Termiz qarshisida Amudaryodan o‘tib, Kesh orqali 1404 yilning 31 avgustida Samarqand qishloqlaridan Misrga keldilar va sohibqironning shu atrofdagi chorborg‘iga kelib tushdilar. Shuni ham aytish kerakki, o‘shanda Klavixo bilan birga Bobil (Misr) va Turkiya sultonining elchilari ham Samarqandga keldilar.

“Kundalik” da o‘sha vaqtarda Amir Temur qo‘l ostidagi mamlakatlar va shaharlarning umumiyligi ahvoli, xalqining kun kechirishi, Temur va uning yaqinlari tashabbusi bilan barpo etilgan binolar: qasrlar, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, savdo rastalari, do‘konlar, ustaxonalar; Temuriylar davlatining Xitoy, Hindiston, Oltin O‘rda (Klavixo uni Tatariston deb ataydi), Mo‘g‘uliston va boshqa mamlakatlar bilan bo‘lgan siyosiy va savdo aloqalari, Temur saroyida amalda bo‘lgan tartib-qoidalar va nihoyat, sohibqironning xotinlari va ularning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o‘rni haqida e’tiborga molik ma’lumotlar keltirilgan. Bu ma’lumotlar, shubhasiz, Turkiston zaminning o‘sha vaqtlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini, otabobolarimizning turmush tarzini o‘rganishda muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, “Kundalik”ning deyarli yarmi elchilar Amir Temur sultanatiga yetib kelishiga qadar bosib o‘tgan yo‘l taassurotlaridan iborat bo‘lib, bu o‘rta asrlarda hududlarning siyosiy-geografik o‘rnini tadqiq qilish va o‘sha davr manzarasini xayolan bo‘lsada tasavvur qilishimizga yordam beradi. Amir Temur va uning davlati to‘g‘risidagi hikoya kitobning ikkinchi yarmida beriladi.

Ma’lumki, Amir Temur dunyo savdogarlar bilan obod bo‘ladi, deb hisoblagan. Shunga ko‘ra, yangi yo‘llar, savdo tarmoqlari buniyod etishga katta sarmoyalar sarflagan. Uning davrida Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari, Yevropaning olis yurtlari – Ispaniya, Fransiya va Angliya bilan siyosiy-iqtisodiy munosabatlar kengaygan. Ayniqsa, Xitoy, Hindiston, Eron, Rusiya, Volga bo‘yi va Sibir bilan savdo-sotiq ishlari muntazam yo‘lga qo‘yilgan. Samarqanddan chet ellarga, xususan, Rusiya, Totoriston va Sibirga asosan arzon narxli ipdan to‘qilgan matolar, duxobalar, shoyi gazlamalar, paxta va kalavalar, qog‘oz, quruq meva va guruch jo‘natilgan. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o‘z kundaligida Samarqand tashqi savdo sohasida yuksak mavqega ega ekanligini quyidagicha ifodalagan: “Rushiya (Rusiya) va Totoristondan charm va qalin gazmol, Xitoydan zo‘rsan‘at bilan to‘qilgan shohi gazlamalar, jahonda eng sara mato hisoblangan atlaslar, ayniqsa, gulsiz atlaslar, shuningdek, faqat Xitoya mavjud bo‘lgan mushk, yoqut, olmos, xullas, bu mamlakatda mavjud bo‘lgan narsalarning katta qismi, marvarid, ravoch va ko‘plab har xil xushbo‘y ziravor-dorivorlar olib kelinadi. Hindistondan eng a‘lo nav mayda, xushbo‘y ziravorlar, muskat yong‘oqlari, qalampirmunchoq, muskat bo‘yog‘i, dolchin bo‘yog‘i, inbir, oqshoq, xullas, (hatto) Iskandariya sultanatiga olib borilmaydigan yana boshqa har xil narsalar Samarqandga keltiriladi”[2:200].

Klavixo Samarqand nihoyatda boy shaharlar sirasiga kirishini batafsil ta’riflagan: “Bu yurt don-dun, may, meva-cheva, parranda go‘shti, (boshqa) har xil go‘sht, qo‘yingki, hamma narsaga boy mamlakatdir. Qo‘ylari katta, serdumba, juda yirik bo‘ladi. Dumbasi odam qo‘lda zo‘rg‘a ko‘taradigan darajada og‘ir – yarim pud, ya‘ni dumbasi sakkiz-o‘n kilogramm keladigan qo‘ylar bor. Serdumbali qo‘ylar shu qadar ko‘p va arzon ediki, podshoh lashkari Samarqandga yig‘ilib kelgan kezlarda bunday qo‘ylardan bir juftining narxi bir dukat (*Ispaniyada o‘sha vaqtda amalda bo‘lgan oltin pul*) turardi. Boshqa mollar ham shu qadar arzon, bir yarim fanega (*Ispaniyada dong‘alla mahsulotlari uchun qo‘llaniladigan og‘irlik o‘lchovi*), arpaning bahosi chamasi yarim real (*Ispaniya pul birligi*) edi. Nonni suv tekin desa bo‘ladi, guruch esa hamma yoqni bosib ketgan edi...

Bu mamlakatning qovuni juda mo‘l va shirin edi. Har kuni shu qadar ko‘p qovun ortilgan tuyalar kelar ediki, bu qovunlar qay yo‘sinda xarid qilinib, qanday iste’mol etilishiga ajablanmaslik mumkin emas... Samarqand va uning atrofidagi yerlar hayratmuz darajada mo‘l-ko‘l va boy edi. Mana shunday boyligi tufayli shahar Samarqand deb ataladi. Uning haqiqiy nomi Semizkent, ya’ni boy qishloq demakdir. Samarqand ana shu nomdan kelib chiqqan. Shaharning boyligi oziq-ovqatlarning mo‘l va arzonligidagina emas. Bu yerda ko‘plab ishlab chiqariladigan atlas, kimxob, sandal, tafta va tersenal singari shohi gazlamalar, mo‘yna va shohidan tayyorlanadigan astarliklar, upa-elik va (boshqa) pardoz mollari, ziravor-dorivorlar, zarhal va ko‘k lojuvard bo‘yoqlar, boshqa narsalar ham mo‘l-ko‘l edi” [2:198-199].

Klavixoning safar xotiralarida katta xiyobon va savdo rastalariga taalluqli talay dalillar ham keltirilgan: “Samarqand shahrida har yili Xitoy, Hindiston, Totoriston (Oltin O‘rda) va boshqa mamlakatlardan, shuningdek, benihoya boy Samarqand saltanatining (*bunda Mavarounnahr poytaxti Samarqand shahri nazarda tutilgan*) o‘zidan keltirilgan mollar sotiladi. Shaharga keltirilgan barcha mollarni bir safda tartib bilan joylashtirib sotadigan keng joy shu paytgacha yo‘q edi. Podshoh shaharda ikki tarafida qator do‘konlar o‘rnatilgan savdo rastasidan iborat ko‘cha o‘tkazishni buyurdi. Mazkur ko‘cha shaharning bir chekkasidan boshlanib, qoq o‘rtasidan kesib o‘tib, ikkinchi chekkasidan chiqishi lozim edi. Podshoh bu ishni o‘zining ikki amiriga topshirdi. Ular ko‘cha qurilishini kechayu kunduz zo‘r berib, shitob bilan davom ettirmasalar, boshlari bilan javob berishlarini angladilar. Yo‘lga tushgan uylar kimniki bo‘lishidan qat’i nazar, beto‘xtov buzildi... Ko‘chaning ikki tomoniga do‘konlar o‘rnatildi, har bir do‘kon oldida marmar bilan qoplangan baland kursilar o‘rnatildi. Do‘konlar ikkita xonadan iborat edi. Ko‘chaning tepasi gumbaz (tim) shaklida yopilgan bo‘lib, (tepasidan) yorug‘lik tushib turadigan tuynukchalar qo‘yilgan. Qurilish tugashi bilanoq, tayyor do‘konlarda tijorat ahli har xil mollar bilan savdo qila boshladilar”[2:193]. “Shu yili (1404 yil – tarj.) iyun oyida Kambalek(Xonbaliq, ya’ni Pekin) shahridan qariyb sakkiz yuz tuyadan iborat savdo karvoni Samarqandga keldi”[2:202].

Bundan tashqari, Ispan elchisi Temuriylarga oid to‘y-hashamlar, ko‘ksaroy qasri va undagi podshohga tegishli quroq ishlab chiqaruvchi ustaxona, Amir Temuring o‘zi bilan birga olib yuradigan ko‘chma masjidi, saroydagi ayollar mavqeい, hunarmandchilik va boshqa mavjud shart-sharoitlar haqida qimmatli ma‘lumotlarni qayd etish bilan birga, mahalliy xalqning (uni Klavixo chig‘atoiylar deb ataydi) turmush tarzi haqida. “U - mehnatsevar, mohir chavandoz, kamon otuvchi mergan, umuman urushda sabot-matonatli xalq. U boriga qanoat qilib, nonsiz (birgina) sut va go‘sht bilan ham kun kechiraveradigan, go‘shtli va go‘shtsiz ovqat bilan ham tirikchilik qilishga o‘rgangan xalq. Issiq va sovuqqa, ochlik va tashnalikka jahondagi boshqa ellardan sabotliroq va chidamliroq xalq. Borida go‘shtni haddan ortiq iste’mol qiladi, yo‘g‘ida suvgaga qatiq qo‘shib qaynatib ichish bilan kifoyalanadi”[2:16].

O‘sha davrda, Samarqand va Hirotda zargarlik rivoj topdi. Oltin, kumush va jez qotishmalariidan turli xil zeb-ziynatlar va qimmatbaho buyumlar yasaydigan va ularga nozik did bilan nafis badiiy ishlov beruvchi mohir zargarlar soni ko‘paygan va albatta, ularning faoliyati hukmron tabaqha vakillari tomonidan alohida qadrlangan. Rui Gonsales de Klavixoning qayd etishicha,” ... Podshohning nevarasi Pirmuhammad milliy udumga binoan juda yaxshi kiyungan edi. Ustida ko‘k beqasam yaktak, yaktakning ikki yelkasi, ko‘kragi va yenglariga bittadan zarhal halqa tikilgan. Boshidagi qalpog‘i yirik marvarid va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, qalpoqning tepasiga qadalgan la‘l yonib turardi[2:177]. ... Odamlar joy-joylariga xotirjam o‘rnashishgach, shohning katta xotini Kan‘o(Saroy Mulk xonim) ko‘shk yonidagi sarpardalarning biridan chiqib keldi. Saroy Mulk xonim bunday kiyungan edi: egnida zarhal bezakli, etagi yerda sudralib turgan uzun va keng, yengsiz va yoqasiz qizil shohi ko‘ylak, ko‘ylak belidan hech bir kesib toraytirlmagan holda etagiga acha kengayib borgan. Malikaning yuziga yupqa oq mato utilgan, boshida xuddi jangda kiyiladigan dubulg‘aga oxshash uchli qizil bosh kiyim.Ularga ko‘plab durru noyoblar, yoqut, feruza va boshqa xilma-xil(qimmatbaho) toshlar juda chiroyli qadalgan. Bosh kiyimning zarhal bilan tikilgan va xonim yelkasiga tushib turgan qismiga ham qimmatbaho toshlar va durri noyob bilan bezatilgan chiroyli tilla bargak qadalgan. Qalpoq uchi bamisolai jajji ayvonga o‘xshaydi, favqulodda chiroyli, ikki barmoq yo‘g‘onligida yal-yal yonib turgan, tiniq uchta dona yoqut o‘rnatilgan”[2:180].

Ushbu “Kundalik”da shunga o‘xshash qiziqarli ma’lumotlar juda ko‘p. Klavixoning «Kundaligi» da o‘rta asrlardagi G‘arb va Sharq mamlakatlaridagi hayot manzaralari, turli xalqlarning o‘ziga xos urf-odatlari, an‘analari, rivoyatlar, tartib-qoidalar, o‘sha davr geografiyasi, iqlimi, dengizlar, orollar, qumlik sahrolar, poyonsiz dashtlar, tog‘lar, ko‘llar, obod va xaroba shaharlar... to‘g‘risida g‘oyatda rang-barang, keng qamrovli, o‘ziga xos, noyob ma’lumotlar berilgan. Shu bilan birga ushbu asarda ayrim noaniqliklar, xato va kamchiliklar ham uchraydi. Ya’ni, sohibqironning hayotiga bag‘ishlangan biron taixiy asarda uning o‘g‘ri va yo‘l-to‘sar bo‘lganligi asoslanmagan ma’lumotlarni ham ilova qilib o‘tgan. Bu haqda hozirgi ayrim kitoblarda uchrab turadigan bunday gaplar aftidan Klavixoning kimdandir eshitgan yarim afsona gaplariga asoslanganga o‘xshaydi. Asarda uchraydigan yana bir kamchilik - bu kishi va joy nomlarining yozilishidagi chalkashlikladir. Albatta, boshqa millat kishisi uchun mahalliy atamalar va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish juda qiyin. «Kundalik»da tilga olingan Amirat - Murod, Xokarok - Shohruhmirzo, Karil sultan – Xalil sulton, Kirmanoli - Manuil Paleolog, Karamish - To‘xtamish, Miixa mirassa - Mironshoh mirzo, Anguri - Anqara, Baldat- Bag‘dod, Baubertel-Bovard, Kanbalek-Xonbaliq, Karras-Araks, Orasan-Xuroson ekanligini anglash mumkin. Lekin ular orasida aniqlik kiritish imkoniyati yo‘q bo‘lgan atamalar ham bor [2:18-19].

Ushbu “Kundalik” bizga zamondosh bo‘lgan turli yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotchilar uchun bebafo manba hisoblanadi. Siyosatchilar iqtisodchilar, huquqshunoslar, tabiatshunoslar, geograflar, yozuvchilaru-etnograflar uchun o‘rta asrlarga oid qomusiy ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

#### **Foydalanilgan aadabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari faoliyatiga bag‘ishlangan nutqi, “O‘zbekiston manfaatlarini xalqaro miqyosda qat‘iy himoya qilish – diplomatik korpusimizning asosiy vazifasidir”. 12/01/2018. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz).

2. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). Toshkent, 2010.

## **ИЗ ИСТОРИИ ОСВОЕНИЯ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ**

**3.Т.Мамбетниязова - Нукусский филиал ТаиГАУ**

Исторические судьбы населения Южного Приаралья всегда привлекли исследователей Средней Азии хотя бы в силу того, что историческая традиция сохранила представления о нем как о границе между древними скотоводческими племенами и земледельцами древнейших оазисов Средней Азии. За время работ Хорезмской археолого-этнографической экспедиции значительное внимание было уделено изучению материальной культуры Южного Приаралья.

Южное Приаралье было своеобразным «перекрестком» исторических путей передвижения народов, важных миграционных, а также торговых дорог. Здесь же формировались условия устойчивого сосуществования на протяжении столетий представителей различных этносов. Нельзя не отметить сосуществования здесь различных типов хозяйствования в определенные исторические периоды.

Судя по археологическим данным, к концу III – началу II тыс. до н. э., в юго-восточном Приаралье сформировались основные русла древней дельты Сырдарьи. Памятники этого периода немногочисленны, но они определяют существование в то время двух ведущих направлений стока вод древнего бассейна реки Сырдарьи: в западной части по системе русел Инкардарьи на север к правобережному руслу Амударьи – Акчадарье (урочище Чопан казган, стоянки Жалпак), в центральной части Сырдарьинской дельты, – с юга на север, от протоков Инкардарьи к Ескидарьялыку (стоянки Космола, Есен-тобе, Талас 1).

Это позволяет сделать вывод, что заселение низовьев Сырдарьи шло вдоль русел, и основой хозяйства первобытных племен было отгонное скотоводство. Поскольку такой вид хозяйства не требовал строительства постоянных жилых построек, то следы жизнедеятель-